

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI O'QUV-TARBIYA JARAYONGA QO'LLANISH JARAYONING AHAMIYATI

Muhammadiyeva Hilola¹

Qo'qon davlat universiteti

KEYWORDS

innovatsiya, pedagogik
texnologiya, ta'lim sifati, IT
mutaxassislari, innovatsion
yondashuv.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ta'lim tizimi samaradorligini oshirish, pedagoglarni zamonaviy bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, o'qitishning ilg'or texnologiyalaridan boxabar bo'lib va ta'lim amaliyotiga tadbqiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Dastur xalq ta'lim muassasalari pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi darajasini rivojlantirish, ularning interaktiv metodlar, pedagoglarning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion metodikalar, masofadan o'qitishni, mustaqil ta'lim olishni kengaytirishni nazarda tutuvchi texnika va texnologiyalardan foydalangan holda mashg'ulotlar olib borish malaka va ko'nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15547365**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi jadal rivojlanib bormoqda. Bu rivojlanish pedagogik jarayonlarga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi shaxs sifatida qaralmoqda. Shu boisdan pedagogik texnologiyalarni o'quv-tarbiya jarayoniga samarali qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiya deganda ta'lim jarayonini oldindan rejalashtirish, uni amaliyotga joriy etish va natijalarni baholash orqali samaradorlikka erishish tizimi tushuniladi. Bu tushuncha o'quv jarayonini ilmiy asoslangan, tartibga solingan, aniq metodlar asosida olib borilishini anglatadi. Pedagogik texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, bilim olishga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi – ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdir. Bu texnologiyalar quyidagi vazifalarni bajaradi:

¹ Qo'qon davlat universiteti Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

- O'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish;
- O'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirish;
- O'quv jarayonini tizimli va samarali tashkil etish;
- Ta'limning natijadorligini tahlil qilish va baholash.

O'quv-tarbiya jarayonida turli xil pedagogik texnologiyalar qo'llanilishi mumkin. Ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. **Muammoli ta'lim texnologiyasi** – o'quvchilarning faol fikrlashiga asoslangan texnologiya bo'lib, bunda o'quvchilar oldiga muammo qo'yiladi va ular uni hal qilish yo'llarini o'zlari topadilar.
2. **Modulli o'qitish texnologiyasi** – o'quvchilar mustaqil ishlashga yo'naltiriladi. Har bir modulda nazariy bilimlar, amaliy topshiriqlar va mustaqil ishlar mujassam bo'ladi.
3. **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)** – kompyuterlar, multimedia vositalari, internet texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini boyitadi.
4. **Kollektiv o'qitish texnologiyasi** – jamoaviy ishlashga asoslangan bo'lib, o'quvchilar guruhlarda ishlaydi va o'z fikrlarini baham ko'radi.
5. **Interfaol usullar** – “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Baliq skeleti” kabi usullar o'quvchilarning bilimni faol o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiya — ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.[1]. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb yuritiladi. O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor,elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o'tishi ham mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish lozim. Har bir o'qituvchi ta'limda individual ravishda yangilik kiritishi mumkin. O'z fanining mazmun-mohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fan yutuqlari va innnovatsiyalar haqida yangi ma'lumotlarni o'rgangan holda o'qitish jarayonida ularni qo'llab, misollar keltirib, ta'limda yangi metodni yaratishi, hamda shu asosida dars o'tishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi. Innovatsion pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo'lib, u ta'limning zaruriy sifatini ta'minlaydi va jadallashgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbqiq etishning izchil metodidir. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib hisoblanadi. Ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish, so'nngi texnikalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, mutaxassislik bo'yicha, masalan kimyo sohasidagi so'nggi innovatsiyalar haqida ma'lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalar keltirib o'tish

talabalarni yangilik yaratish ruhida tarbiyalashga turtki bo'ladi O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor,elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o'tishi ham mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish lozim. Har bir o'qituvchi ta'limda individual ravishda yangilik kiritishi mumkin. O'z fanining mazmun-mohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fan yutuqlari va innnovatsiyalar haqida yangi ma'lumotlarni o'rgangan holda o'qitish jarayonida ularni qo'llab, misollar keltirib, ta'limda yangi metodni yaratishi, hamda shu asosida dars o'tishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi.

Ma'lumki, har qanday texnologiya ta'limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanadi va ta'lim oluvchi shaxsini tarbiyalash, unda mehnat va muayyan yo'nalishlarda kasbiy ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltiriladi. Ta'lim jarayonining faol sub'ektlari o'qituvchi va o'quvchilar bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari muayyan mavzu (yoki fanlar asoslari) bo'yicha kam kuch va vaqt sarflangan holda nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini beruvchi jarayonning umumiy mohiyatini tavsiflaydi. O'qituvchining faol, samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta'lim jarayonini faollashtirish va jadallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalari ta'lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek, ularning shaxsiy va o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o'quv materialini o'zlashtirishga sharoit yaratadi, ta'lim-tarbiyasi butun mashg'ulot davomida o'quvchilarning faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda rivojlantirib borish maqsadini ko'zda tutadi, o'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya talablarini o'quv yoki ishlab chiqarish faoliyatiga tezkor jalb qilish imkonini beradi. Aks holda, zaif, etarli darajada tushunarli bo'lmagan yoki aniq natijani ko'zlanmagan topshiriqlar mashg'ulotning samarasiz yakunlanishiga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05), 6694-6701.
2. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: Iste'dod, 2008.-180 b.
3. Ishmuhammedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).- T.: Iste'dod, 2010.-140 b.